

O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBI SOHASIDA KADRLARNI TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH MUAMMOLARI

Ergashev Olloyor Furqat og'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali assistenti

colloyor@mail.ru

Bahronova Farangiz Nafas qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali talabasi

baxronovafarangiz374@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasida kadrlarni tayyorlash va malaka oshirish muammolarini vujudga kelish sabablarini atroflicha ko'rib chiqamiz. Bugungi rivojlanayotgan iqtisodiyotda buxgalteriya hisobini rivojlanishga ta'siri haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Malakali kadrlar, buxgalteriya ta'limi, buxgalteriya texnologiyalari.

O'zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasida kadrlarni tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha so'nggi yillarda bir qator muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'zgarishlar nafaqat ta'lim tizimining yaxshilanishi, balki buxgalteriya sohasidagi xalqaro standartlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan. Bunga misollar qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin: Buxgalteriya ta'limini madernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashuv, kadrlar yetishmaslik muammolar, kamyuterlashtirish va raqamli texnologiyalarga o'tish jarayonini, malaka oshirish va setifikatsiyalash tizimlarini yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy yordamlar ko'rsatilib kelmoqda O'zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasida kadrlarni tayyorlash va malaka oshirishda bir qator muammolar ham mavjud. Ushbu muammolarni ko'rib chiqish, buxgalteriya tizimini takomillashtirish va zamonaviy talablarga moslashtirish uchun zarur hisoblanadi, amaliyotda biz quydagi muammolarini ko'rishimiz mumkin bular

-Buxgalteriya ta'limining dolzarbligi va sifat muammolari:

Buxgalteriya hisobining zamonaviy talablar va texnologiyalar bilan integratsiyasi yo'qligi. O'zbekistonda buxgalteriya hisobi bo'yicha tayyorlov dasturlari ko'pincha eski metodologiyalarga asoslanadi, bu esa kadrlarning yangi tizimlarga moslashishini qiyinlashtiradi. Buxgalteriya ta'limida nafaqat amaliy bilimlar, balki zamonaviy dasturlar va texnologiyalarni (masalan, avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlari) o'rgatish zarurati mavjud.

-Buxgalteriya hisobini modernizatsiyalashda resurslar yetishmasligi:

Buxgalteriya hisobi uchun zarur bo'lgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun yetarli moliyaviy va texnik resurslar yo'q. Ko'plab kichik va o'rta bizneslar avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlarini qo'llashga tayyor emas, chunki bu ularga qo'shimcha xarajatlar keltiradi. Bu, o'z navbatida, hisob-kitob va moliyaviy hisobotlarni qo'lda bajarish zaruriyatini keltirib chiqaradi, bu esa vaqtni va resurslarni isrof qilishga olib keladi.

-Malaka oshirish tizimining zaifligi:

Buxgalterlar uchun malaka oshirish kurslari va treninglarining yetarlicha rivojlanmaganligi. Ko'plab kompaniyalar o'z xodimlari uchun malaka oshirishga alohida e'tibor bermaydi yoki bu jarayonni rasmiy ravishda yo'lga qo'ymaydi.

Oliy ta'lim va malaka oshirish kurslari orasida samarali aloqaning yo'qligi. Bu, o'z navbatida, ishga kirishdan oldin yuqori sifatli tayyorgarlikni amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

-Buxgalteriya standartlarining va qonunchiligining tez o'zgarishi:

O'zbekistonning buxgalteriya va soliqqa tortish tizimida tez-tez o'zgarishlar bo'lib turadi. Buxgalterlar bu o'zgarishlarga moslashish uchun muntazam ravishda o'z bilimlarini yangilashga majbur bo'lishadi. Bu jarayon uchun amaliyotda mavjud bo'lgan imkoniyatlar cheklangan.

Yangi normativ hujjatlar va xalqaro buxgalteriya standartlari (BHXS) ning qabul qilinishi buxgalterlarning malakasini oshirishga ehtiyojni oshiradi, ammo bunga moslashish uchun keng miqyosdagi o'quv dasturlari va treninglar kerak.

- Xalqaro tajriba va hamkorlikning cheklanganligi:

Buxgalteriya hisobi va audit bo'yicha xalqaro tajriba va standartlar bilan to'liq tanishish imkoniyatlari cheklangan. O'zbekistonda ko'plab buxgalterlar xalqaro moliyaviy hisobotlarni tayyorlash yoki auditni amalga oshirish bo'yicha tajribaga ega emas.

Buxgalteriya tashkilotlari va ilmiy muassasalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish zarur.

-Buxgalteriya mutaxassislarining ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli:

Buxgalterlar o'rtasida oylik ish haqi va ijtimoiy himoya darajasi past. Bu holat, buxgalteriya sohasi mutaxassislarining malaka oshirish va yangi bilimlar olishga qiziqishlarini kamaytiradi.

O'zbekistonning ayrim hududlarida buxgalteriya hisobi mutaxassislariga bo'lgan talab yuqori emas, bu esa kadrlar tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini cheklaydi.

Buxgalteriya Hisobi va Iqtisodiy Rivojlanishning Bog'liqligi

Buxgalteriya hisobi — bu korxonada yoki tashkilotning moliyaviy holatini, daromad va xarajatlarini, aktiv va passivlarini kuzatib boruvchi tizimdir. Buxgalteriya hisobining rivojlanishiga oid texnologik, metodologik va tartibga solish o'zgarishlari iqtisodiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda buxgalteriya tizimlarining samaradorligi va aniq ishlashiga yordam berib kelmoqda. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda buxgalteriya hisobi shaffoflikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. To'g'ri va aniq hisobotlar investorlar va davlatlarga iqtisodiy faoliyatning haqiqiy holatini tushunishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi, chunki tashqi va ichki investitsiyalar ko'payadi, moliyaviy resurslar samarali taqsimlanadi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda buxgalteriya hisobi

soliq siyosatini yaxshilashga yordam beradi. To'g'ri va shaffof hisobotlar soliq to'lovchilarni aniqlash va soliq yig'ishni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Bu davlat byudjetini boyitadi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi rivojlanayotgan iqtisodiyotda buxgalteriya hisobining roli va ahamiyati juda katta. Buxgalteriya hisoboti iqtisodiy subyektlarning moliyaviy holatini aniq tasvirlab, qarorlar qabul qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha hozirgi vaqtda Buxgalteriya ta'limini va malaka oshirish tizimini zamonaviylashtirish, xalqaro tajribalarni kengaytirish, normativ hujjatlarni tezkor yangilash va buxgalteriya sohasidagi sifatli kadrlarni tayyorlash imkoniyatlarini oshiradi. Bu jarayonlarni amalga oshirsa O'zbekistonda buxgalteriya tizimining samaradorligini va raqobatbardoshligini kuchaytirishga yordam beradi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

“Buxgalteriya hisobi va audit” (Muhammadaliyev M, 2020) –Ozbekistonda buxgalteriya hisobining zamonaviy o'zgarishlarini, jumladan, avtamatlashtirilgan tizimlar va raqamli texnologiyalarni qamarab olgan manba.

“Accounting Information Systems” (Gelinas, Dull, Wheeler, 2014) –Bu adabiyot zamonaviy buxgalteriya tizimlari va ularning integratsiyalarini yoritadi. Ko'plab universitetlarda bu kitob buxgalteriya ta'limida foydalaniladi.

“Professional Accounting and Deelopment” (Kornberger, 2018) –Buxgalteriya uchun malaka oshirish ahamiyati, kurslar va treninglar orqali ularni qanday rivojlantirish mumkinligi haqida.

“Human Resource Management in Accounting” (Patel, 2016) –Buxgalterlar uchun malaka oshirish va ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab quvvatlash masalalarini ko'rib chiqadi.

Academia.edu (www.academia.edu)

O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi (www.soliq.uz)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va qonunchilik portal
Sayt: www.lex.uz